

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING AN‘ANAVIY BAYRAMLARI VA SAYLLAR

Farrux Tursunov

P.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Fan va texnologiyalar universiteti

Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar

bo‘yicha birinchi prorektori

f.tursunov83@mail.ru

Tel: (90)-977-05-83

MAQOLA HAQIDA: Maqolada Qashqadaryo vohasi tojiklarining sayri guli lola (lola guli sayri), sayri guli surx (qizil gul sayri), mahli darav (hosil yig‘ish), barfi yakum (birinchi qor), Dehi darveshon, Sayri mazor (mazor sayli) va suv sayli kabi an‘anaviy bayramlari, marosimlari va sayllari etnografik manbalar va dala materiallari asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, mehrjon, “sust xotin”, Devi safed, Dehi darveshon marosimi, Sayri mazor (mazor sayli), sayri guli lola (lola gul sayli), sayri guli surx (qizil gul sayli) va kuz faslida sayri guli bexi (behi guli sayli).

ТРАДИЦИОННЫЕ ПРАЗДНИКИ И ЗАСТОЛЬЯ ТАДЖИКОВ КАШКАДАРЬИНСКОГО ОАЗИСА

О СТАТЬЕ: В статье таджики Кашкадарьинского оазиса говорят сайри гули лола (прогулка по цветам сирени), сайри гули сурх (прогулка по красным цветам), махли дарав (урожай), барфи якум (первый снег), Дехи дервишон, Сайри На основе этнографических источников и полевых материалов проанализированы мазар (прогулка по кладбищу), а также традиционные праздники, обряды и ярмарки, такие как сплав по воде.

Ключевые слова: Навруз, мехржан, «медленная женщина», Деви-сафет, дервишская церемония Дехи, Сайри мазар (кладбище), сайри гули лола (цветок сирени), сайри гули сурх (красный цветок) и осенью Сайри Гули Бехи (Цветок айвы, мудрец).

TRADITIONAL HOLIDAYS AND EVENTS OF THE TAJIKS OF THE KASKADARYA OASIS

ABOUT ARTICLE: The article analyzes the traditional holidays, rituals, and festivals of the Tajiks of the Kaskadarya oasis, such as Sayri Guli Lola (Lola Flower Festival), Sayri Guli Surkh (Red Flower Festival), Mahli Darav (Harvest Harvest), Barfi Yakum (First Snow),

Dehi Derveshon, Sayri Mazor (Tomb Festival), and Suv Sayli, based on ethnographic sources and field materials.

Key words: Nowruz, mehrjan, "slow wife", Devi safed, Dehi dervish ceremony, Sayri mazar (mazar sajli), sayri guli tola (tulip sajli), sayri guli surkh (red sajli), and in the fall, sayri guli bekhi (quince sajli).

KIRISH. Tojiklar istiqomat qiluvchi hududlarda sayillar va bayramlar arafasida milliy o‘yinlar va etnosport turlari (*kurash, arqon tortish, qarab tep (lanka), bahodirlar o‘yinlari va tosh ko‘tarish*)ni o‘tkazib borish yoshlarning milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”⁵⁶ asarida Turon aholisining *Navro‘z, mehrjon, sada* kabi bayramlari, *shaxmat* va *chavgon* kabi o‘yinlari ifodalangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Yil fasllari va dehqonchilikka oid marosimlar. Navro‘z bayrami. Ko‘pgina boshqa (masalan, osetinlar, angllar kabi) xalqlarda yangi kun qish faslidagi oyning birinchi kunidan hisoblangan. Tojiklarda esa o‘zbeklar kabi 20-21 mart kunlari nishonlanadi. Biroq tarixiy taqvimlar bugungi kundan bir oz farq qilgan.

Aynan Navro‘z bayrami arafasida Qashqadaryodagi tojik qizlar quyidagi misralarni aytib arg‘imchoq uchishgan:

*Hay, hay havodora,
Bargi safedora,
Tillo so‘zandona,
Nuqra namakdona,
Yak kulcha halvoya,
Chokam tavalloya.*

Qashqadaryo vohasi tojiklarida *sayri guli lola (lola guli sayri), sayri guli surx (qizil gul sayri), mahli darav (hosil yig‘ish), barfi yakum (birinchi qor)* kabi marosimlar ijro etiladi. Ayrim marosimlar yo‘qolib bormoqda va faqat vohta tojiklarining keksa avlod vakillari orasida ijro etilmoqda. Marosimlarning roli va ahamiyati ham yo‘qolib bormoqda.

Quyidagi qo‘shiq tabriyaviy xarakteriga ega bo‘lib, odamlar bir-birlariga o‘z iltimos va orzularini bildiradilar, bir-birlarining holidan xabar oladilar. Qo‘shiqning o‘zgarishi va xilma-xilligi ham qisman shu xususiyat bilan bog‘liq.

Masalan:

*Bahoron shud, bahoron shud,
Ba ro‘i sabza boron shud.
Hama gulho namoèn shud,
Bahori nav muborak bod.*

⁵⁶ Фирдавсий Абулқосим. Шоҳнома: сайланма / А. Фирдавсий: нашрга тайёрловчи ва насрий баёни таржимони Ҳ.Ҳомидий, масъул муҳаррир Ж.Мухаммад. – Тошкент: Алишер Нааоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2012. – 188 б.

*Bahor omad ba mehmonū
 Tu qadrashro chū medonū?
 Agar donū namexonū?
 Bahori nav muborak bod!
 Guli xargo ‘shi labgardon,
 Mièni havliyash maydon.
 Ki bozū mekunad bashkon,
 Bahori nav muborak bod!*

Tog‘ va vodiylarda yashovchi Qarqadaryo vodiysi tojiklarining aksariyati dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Darhaqiqat, dehqonlar tobiston (bahor) kelishi bilan yerni ekishga hozirlab, kuchli qo‘llari bilan yerga chigit qadab, ko‘nglida obodlik, yangi hayot yo‘lidagi samarali mehnatdan umidvor bo‘ladi. Xonandalar Bobo Dehqonga ishora qilib, kuylaydilar:

*Bahor omad, bahor omad,
 Bahori lolazor omad.
 Ba dehqon kishtu kor omad,
 Ba cho‘pon to‘li mol omad.
 Hama gulho qator omad,
 Guli savsan savor omad.
 Bahori nav muborak bod!⁵⁷.*

Qashqadaryo tojiklari nazarida *Dehqon bobo (Boboi Dehqon)* hosilning himoyachisi mo‘l-ko‘l hosil timsoli bo‘lib hisoblangan. Yaqin o‘tmishda Kasbi tumanidagi Qamashi qishlog‘ida Dehqon boboga atab haykal ham qo‘yilgan. Navro‘z arafasida o‘tkazilgan *ko‘pkari* tojiklar tomonidan “*buzkash*” deb atalgan.

O‘rta Osiyoda iqlimi sharoitida tabiat bilan bog‘liq bayramlar suvga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj asosida shakllangan. Bu bayram, marosimlar O‘rta Osiyoning lalmikor hududlaridagi “*Suv xotin*” marosimi bo‘lib, turkmanlarda “*Syuit gazan*”, tojiklarda “*sust momo*”, “*sust xotun*”, Pomir xalqlarida “*Ashag‘lon*”, Afg‘oniston o‘zbeklarida “*Yomg‘ir gadosi oldi*”, Buxoro vohasining Olot, Qorako‘l tumanlarida, Jizzaxda, shimoliy va janubiy Tojikistonda “*sust xotin*”, “*suv xotin*”, “*sut xotin*”, “*Chala xotin*”, Zarafshon vodiysida “*sust xotin*”, Surxondaryo vohasida “*Bo‘z xotin*”, Qashqadaryoning ba‘zi qishloqlarida “*sel xotin*”, “*tuz xotin*”, “*suzil xotin*”, “*Chayla qozoq*” deb ham atalgan⁵⁸. Bu marosim O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekistonning turli mintaqalarida har xil ko‘rinishlarda tashkil etilgan. Masalan, Jizzax (Zomin, Baxmal, G‘alaorol) va Tojikiston, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida belgilangan kuni (bu tadbir asosan omadli va xosiyatli kunlarda yakshanba, dushanba, payshanba, juma kunlari o‘tkazilgan) 10-15 ta ayol qo‘g‘irchoqqa kekxa ayol ko‘ylagini

⁵⁷ Қодиров Р. Фолклори маросими то революционии тоҷикони водии Қашқадарё. –Душанбе: 1963, – Б. 105-106.

⁵⁸ Bo‘riyev O , Xo‘jamboerdiyev T. O‘zbek xalqi boqiy qadriyatlari (etnotarixiy lavhalar) Qarshi, 2005, 22- bet.

kiydirishib ko‘tarib olishgan. Barcha ayollar qo‘g‘irchoq ko‘targan ayol ortidan, ergashib, uyma-uy kirib, “*sust xotin*” qo‘shig‘ini aytganlar, uy egalari ularni hursandchilik bilan kutib, qo‘g‘irchoq ustiga suv sepkan va imkoniyatiga qarab xayr-ehsonlar bergan. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarining ba‘zi qishloqlarida esa bu marosim erkaklar ishtirokida ham o‘tkazilgan⁵⁹. Tojiklar orasida *Devi Safed* (“oq ma‘buda yoki oq dev” ma‘nosini bildiradigan) yigiruvchilarning homiysi bo‘lib, to‘quvchilar juma kuni uni e‘zozlab, o‘sha kuni ishdan o‘zini tiyganlar.

XIX asrdagi bayram sayllari o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar saqlanib qolingan. Jumladan, “*sayli soli nav*” (“*yangi yil sayli*”)⁶⁰ da turli yosh va kasbdagi insonlar ishtirok etgan. Ko‘l qishlog‘ida asosan islom diniga aloqador qadriyatlar saqlangan bo‘lsada, islomdan avval shakllangan *Navro‘z va sada* marosimlari ham ado etiladi.

O‘zbeklarda “*Lola sayli*” udumi bo‘lgani singari, Qashqadaryo tojiklarida ham “*Guli surx*” udumi bo‘lgan. Bu udum bahor faslida o‘tkazilgan. Mahalliy aholining ta’kidlashicha, bu paytda oqadigan daryo suvining shifobaxsh xususiyati bor ekan. Kasbi tumani Qamashi qishlog‘idagi tojik ayollarning ta’kidlashicha, bahor faslidagi gullardan tashlangan suvga cho‘milgan kishi kasalliklardan forig‘ bo‘lar ekan. Bu to‘g‘risida tarixiy manbalarda ham ma‘lumot berilgan.

Qabulbiy Kenagas Shahrizabzda muxofilot ko‘tardi, Ibodullobiy xitoyi Miyonqolda isyon kildi. Bir ming bir yuzu ellik sakkizinchi xijriy (1745 isoviy) yilida guli surx bayrami vaqtida Naqshband alayhi alrahmatullohi mozorida odamlar borganda, Buxoroga bir guruh yo‘l to‘sarlar Ibodullo boshchiligida bostirib kirib, kishilarning ko‘p molu-ashyolarini olib, Baxovuddin Nakshbanddagi guli surx bayramida qatnashgan kishilarni talab ularni asir olib, ko‘p g‘animatlar olib ketadilar⁶¹.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tojiklar ham azaldan bo‘rining ilohiy xususiyatlari borligiga ishongan. Bo‘rining tirnog‘i, terisi va hatto jinsiy a‘zosini osib yurish omad keltirishiga ishonilgan. Qashqadaryoning tojik she‘valarida so‘zlashuvchi aholisi orasida ilonning terisini tumor sifatida oq-qora ip bilan tizib beshikka taqish yoki yosh bolalarga osib qo‘yish udumi hali ham bor.

Ko‘hna Fazli ziyoratgohiga tutash tojik qishloqlari aholisi orasida “Ajdahoga aylangan ilon” haqidagi rivoyatlar aholi orasida haligacha aytiladi. Qamashi qishlog‘i tojiklarining rivoyatlari aynan Pomir tojiklarining “Dar borai mor”⁶² rivoyatiga o‘xshash bo‘lib, unga ko‘ra

⁵⁹ Abdullayev U., Isoqov Z. “Xalqimizning an‘anaviy urf-odat va marosimlarida zardo‘shiylik izlari” // NOMODDIY MADANIY ME‘ROS VA ETNOMADANIY QADRIYATLAR (Ilmiy seminar materiallari). T.: Navro‘z, - B. 85.

⁶⁰ Туркестанский альбом. Часть этнографическая. 1871-1872 гг. Народное гулянье в праздник “Новый год”, “Саили Сали Нау”. Н.В. Нехорошев. - Л. 61.

⁶¹ Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий таворихи муттақадимин ва муттаахирин. “Бухоро” нашриёти, 2003. - Б. 283.

⁶² Фолклори Помир. Чилди 2. Асотир, ривоят ва нақлҳо.- Душанбе: Империял-групп, 2005. - С. 289.

hamma ilonlar ham ajdahoga aylanavermaydi, ajdahoga aylangan ilon tilla qo‘riqchisi bo‘lib hisoblanadi.

Dehi darveshon marosimi – bu marosim G‘elon qishlog‘ida o‘tkaziladi. Unga ko‘ra 3 ta nuroniy kishi mahallani kezadi va pul yig‘adi. To‘plangan pulga kerakli narsalar xarid qilinib, Sarichashmada ovqat pishiriladi. Udumga ko‘ra hamma uyidan tovoqlarini ko‘tarib boradi⁶³.

Sayr (sayl). Quyi Qashqadaryo tojiklari sayri ziyorat marosimlari bilan o‘zaro bog‘liq. Masalan, Qamashi va Fazli qishloqlari tojiklari bahor ko‘klamida Is‘hoq bobo, Ko‘hna Fazli va avliyo Xo‘jamurodbaxsh ziyoratgohlariga borishadi. Mahalliy tojiklarning e‘tirof etishicha chorshanba murodbaxsh kun hisoblanadi.

Sayri mazor (mazor sayli) – Kuz (tiramo) faslining oxirida Shahrisabz tumanining Qizilemchak dahasida sayri mazor (mazor sayli) tashkil etiladi. Muysafed (nuroniy kishi) haftaning biron bir chorshanba kunini tanlaydi. Bu kunda hamma joy va xonadonlar orasta holiga keltiriladi.

Marosimdan bir necha kun oldin ikki-uch nafar erkaklar uyma-uy yurib *pul xo‘rokvori* to‘plashadi.

Sayr kuni ertalab ma‘rakaning ikki qozoni (biri erkaklar uchun va boshqasi ayollar uchun) Xojamehtar nomiga atab olib borib o‘rnatadi. Xojamehtar nomli mazor bor. Aholi uni ziyorat qilishadi. Bu mazor Qizilemchakning g‘arbiy-janubida xushmanzara joyda joylashgan.

Mas‘ul shaxslar jamg‘arilgan puldan qo‘y-echki yoki ho‘kiz sotib olishadi, so‘yilib (qon chiqarilib) halisa pishiriladi⁶⁴.

Suv sayli. Suvga bag‘ishlangan qadimiy urf-odatlardan biri Markaziy Osiyoda bayram darajasiga ko‘tarilgan edi. U yozning maxsus kunlari jaziramadan lohas bo‘lgan odamlarning daryo va suv havzalariga borib cho‘milishlari vaqtida vujudga kelgan. Mazkur sayilning tarixiy ildizlari qadimda Navro‘zning hozirgidek bahorda emas, yoz faslida bayram qilingan davrlariga borib taqaladi, bu haqda Abu Rayhon Beruniy shunday yozgan edi: “Odamlar shu kuni tong yorishgan paytda... oqib turgan suvlarga ro‘para turib, barakotli bo‘lish va ofatlarni daf etish uchun ustlaridan suv quyadilar... xorazmliklarda Isfandormaji oyining 10-kuni “vaxshangom” deb ataluvchi hayit bo‘lib, u Vaxsh va Jayhun suviga bag‘ishlangan”⁶⁵.

XULOSA. Bu kabi qarashlar xalqimiz hayotida ham o‘z aksini topib kelgan hamda O‘zbekistonning turli hududlarida suv sayillari bo‘lib turgan. Jumladan, Qashqadaryo viloyati Kitob tumani Oqdaryo qishlog‘ida uch chorshanba davomida suv sayli o‘tkazilgan. Ushbu sayil “Oq suv” (tojikcha “Obi safed”), “Loyqa suv” (“Obi loyqa”), “Teskari suv” (“Obi chappa”) kabi nomlar bilan ham atalgan. Suv sayli o‘tkaziladigan kundan taxminan bir oy oldin qishloq oqsoqollari, faollari tomonidan belgilanib, unga jiddiy tayyorgarlik ko‘rila boshlagan⁶⁶. Kitob tumanidagi Sevaz qishlog‘i nuroniylarining ta’kidlashicha, suv sayli qadim zamonlardan beri

⁶³ Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Шаҳрисабз тумани Ғелон қишлоғи. 2024 йил.

⁶⁴ Қодиоров, Р. Назаре ба фолклори тоҷикони вилояти Қашқадарё – Душанбе: Эҷод, 2005. – С. 43.

⁶⁵ Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – В. 257, 282

⁶⁶ Аширов, Адҳамжон. Ўзбек маданиятида сув. – Тошкент: Akademnashr, 2020. – В. 85.

mavjud. Ular Sevaz qishlog‘i nomining kelib chiqishini ham tojikcha “*Se boz*” (“*Uch o‘yinchi*”) nomi bilan bog‘lashadi. Ular suv saylida sevazliklarning o‘rnini yuqori deb hisoblaydilar. Ilk o‘rta asrlarda keshlik raqqosalar Xitoy imperatori saroyida ham raqs va tomoshalar namoyish etishgan. “*Sayri qo‘shchinor*” sayli faqat Qashqadaryo tojiklarigagina xos bo‘lib, uni boshqa hududlarda uchratib bo‘lmaydi. Bahor faslida *sayri guli lola (lola gul sayli)*, *sayri guli surx (qizil gul sayli)* va kuz faslida *sayri guli bexi (behi guli sayli)* mahaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Б. 257, 282.
2. Аширов, Адҳамжон. Ўзбек маданиятида сув. – Тошкент: Akademnashr, 2020. – Б. 85.
3. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий таворихи муттақадимин ва муттаахирин. “Бухоро” нашриёти, 2003. - Б. 283.
4. Туркестанский альбом. Часть этнографическая. 1871-1872 гг. Народное гулянье в праздник “Новый год”, “Саили Сали Нау”. Н.В. Нехорошев. – Л. 61.
5. Фирдавсий Абулқосим. Шохнома: сайланма: нашрга тайёрловчи ва насрий баёни таржимони Ҳ.Ҳомидий, масъул муҳаррир Ж.Мухаммад. - Тошкент: Алишер Нааоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2012. — 188 б.
6. Фолклори Помир. Чилди 2. Асотир, ривоят ва нақлҳо.- Душанбе: Империял-групп, 2005. - С. 289.
7. Қодиров Р. Фолклори маросими то революционии тоҷикони водии Қашқадарё. –Душанбе: 1963, - Б. 105-106.
- 8.
9. Abdullayev U., Isoqov Z. “Xalqimizning an‘anaviy urf-odat va marosimlarida zardo‘shiylik izlari” // NOMODDIY MADANIY ME‘ROS VA ETNOMADANIY QADRIYATLAR (Ilmiy seminar materiallari). T.: Navro‘z, - B. 85.
10. Bo‘riyev O , Xo‘jamberdiyev T. O‘zbek xalqi boqiy qadriyatlari (etnotarixiy lavhalar) Qarshi, 2005, 22- bet.
11. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Шаҳрисабз тумани Ғелон қишлоғи. 2024 йил.